

Darajalanish qonuniyatining leksik-semantik xususiyatlari

Qurbonmurodova Aziza Shavkatovna

Renessans ta'lim universiteti

Filologiya kafedrası o'qituvchisi

[Tel:99 601 9008](tel:996019008)

***Annotatsiya:** Til birliklarining o'zaro semantik munosabatlari sirasida darajalanish hodisasini zamonaviy paradigmalarda asosida o'rganish. Bugungi kungacha sinonimoya va antonimiyada mavjud bo'lgan darajalanish hodisasi boshqa leksik-semantik munosabatlarni ham ajratish, tadqiq qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Til birliklarining o'zaro semantik munosabatlari sirasida darajalanish o'ziga xos ahamiyat kasb etishi tilshunoslikning keyingi davridagi tadqiqotlari yanada oydinlashadi. Til hodisalarida darajalanishning namoyon bo'lishi uning boshqa leksik-semantik paradigmalarda bilan munosabatini tekshirish, graduonimik munosabat haqidagi ilmiy yondashuvlarga munosabat bildiradi.*

***Kalit so'zlar:** Darajalanish holati, leksik-semantik munosabat, sinonimiya va antonimiya, daraja kategoriyasi, graduanimiya hodisasi.*

Kirish. Tilshunoslikda til hodisalarini tizimli o'rganish usuli maydonga kelgunga qadar so'zlararo ma'noviy munosabatlar tushunchasi ostida, asosan, sinonimiya va antonimiya munosabatlari yuzaga kelgan. Tilshunoslikning keyingi davrlaridagi tadqiqotlari natijasida so'zlararo boshqa leksik-semantik munosabatlarni ham ajratish, tadqiq qilish imkoniyati yuzaga keldi. Xususan, so'zlar ma'noviy jihatdan o'zaro darajalanish munosabatiga ham ega bo'lishi tilshunoslikka oid qator tadqiqotlarda qayd qilinganligini kuzatish mumkin. Jahon tilshunosligida olimlar tomonidan shu paytgacha graduanimiya paradigmasiga o'xshash turli lingvistik hodisa va tushunchalar o'rganilgan

hamda ularning mazkur darajalanish hodisasi bilan farqli jihatlari ham mavjudligi bois ushbu masala turli bahs-munozaraga sabab bo'lib kelmoqda.

Q.Eshboyevning ilmiy ishidan darajalanish bilan bog'liq bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Tilshunos olimi Sh.Orifjonova ilmiy ishida rus tilshunosligida N.S.Trubeskoy va R.Yakobson fonemalarning gradual (darajali) oppozisiya (ziddiyat)lari ma'lum bir belgining ozlik, ko'plik darajasi asosida turli vaziyatlarda o'zaro zidlanishi haqida muhim ma'lumotlar berib o'tganligini keltiradi. Oradan bir necha yillar o'tib, shunday fikrlar S.D.Kasnelsonning ishida ham qayd qilinadi. Uning fikricha, bir rangdan ikkinchi rangga o'tish jarayonida oraliq holatlar mavjud bo'ladi va ular ham tilda so'zlar orqali ifodalanadi (qizg'ish – qizil – qirmizi kabi). Shu bilan birga, tilshunos muayyan belgining turli darajalari bilan bog'liq bo'lgan farqlarni ko'rsata oluvchi ma'nodosh (sinonim) so'zlarning (iliq – issiq, kichik – mitti kabi) aslida bir-birlariga uzluksiz o'tishlar natijasida hosil bo'luvchi katta qatorida joylashuvchi tarkibiy qismlar ekanligini va bunday ma'nodosh so'zlar, odatda, bir-birini inkor qiluvchi zid so'zlar (antonimlar) orasida joylashuvchi ko'p a'zoli kattaroq qatorning o'zaro yondosh bo'lgan ikki yoki undan ko'p tarkibiy qismlari bo'lishini ta'kidlaydi. S.D.Kasnelsonning fikricha, lug'aviy sinonim qatorlar ba'zida belgi darajalanishi farqlariga ham ega bo'lishi mumkin.

Tilshunoslik tarixida daraja atamasi ko'pincha til grammatikasidagi sifat darajalariga nisbatan qo'llangani bois aynan grammatik yo'l bilan hosil qilinuvchi sifat so'z turkumining kategorial formasi hisoblangan sifatlardagi darajalanish tildagi leksik-semantik darajalanish bilan chalkashtirib yuborilishi muammoli holat. K.Kennedi va L.Maknelli maqolasida ham darajalanuvchi sifatlarning gapda kesim vazifasida kelishi hamda ularning oldida qo'llanuvchi daraja aniqlovchilari (well, very, much, half, partially, completely, quite, really kabi) xususida fikr ifodalangan. O'zbek tilshunosligida sifatlardagi darajalanish va uning o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan Z.M.Ma'rufov, A.Madrahimov, A.Xamitova, F.Ishoqov, M.Qo'ldoshev va

Z.Mamarajabovanning ishlarida hamda o'zbek tilidagi ayrim darslik va qo'llanmalarda darajalanish hodisasi sifatida bevosita sifat so'z turkumining kategorial formasi talqin etilgan. Xususan, Sh.Shaxobitdinova o'zbek tili morfologiyasining dialektik talqiniga bag'ishlangan ishida daraja kategoriyasini yanada chuqurroq tahlil qildi va daraja hamda qiyos kategoriyalarini farqlash xususidagi qarashlarini asoslab berdi.[2,17]

O'zbek tilidagi daraja kategoriyasini funksional- semantik maydon sifatida o'rgangan tilshunos L.Elmuurodova daraja tushunchasining grammatik kategoriya doirasiga sig'masligini va uning sathlararo namoyon bo'lishini alohida ta'kidlab o'tadi. Mazkur ilmiy ishda darajalanish hodisasi maydon sifatida o'rganilganligiga qaramay, undagi darajalanish hodisasi faqatgina sifat so'z turkumiga xos grammatik kategoriyaligicha qolaveradi, chunki undagi belgi darajasini ifodalovchi vositalar grammatik yo'l bilan yasalgan holda sifatlarga birikib keladi. Graduonimiya esa aynan lisoniy birliklar belgilarining grammatik yo'l bilan emas, balki leksik va semantik xususiyatlari orqali o'zaro farqlanishini ifodalovchi leksik-semantik maydondir. S.N.Perevolochanskayaning 2008-yili chop etilgan "Смысловые gradasii v ramkax sinonimicheskix otnosheniy" ilmiy maqolasida A.S.Pushkin asarlarida uchrovchi ayol so'zi sinonimlarining ma'nosidagi darajalanish tahlil qilinadi. Mazkur sinonimlar qatoriga ayolning turli belgisini ifodalovchi mifologik ismlar va frazeologik birliklar ham kiritilgan: jenshina, dama, baba, jena, babenka, boginya, sarisa, Venera, Kiprida, Minerva, muza, Gebeya, Sirseya, Diana, Flora, peren, bogoradisa, v soch, krestnisya Kiprid, napersnisa Vener, ditya Xarit, rublevaya Kiprida, rublevaya Varyushka . Ushbu qatorning barcha a'zolarini to'liq sinonimlar deb atash mumkin emas. Chunki ularning aksariyati stilistik va kontekstual sinonimlar bo'la oladi. Ulardagi darajalanish qatori Pushkin asarlaridagi badiiy-stilistik mahorat asosida vujudga kelgan mazkur leksik birliklarning ma'no mundariyasi asosida tuzilgan, bu ishda gradatsiya atamasi badiiy asar tilidagi usul (priyom) sifatida qo'llangan. O'zbek tilida leksik antonimlarni tadqiq qilgan R.Shukurov antonimik juftliklar orasida oraliq tushunchalar yoki mantiqiy markazlarning mavjudligini (o'tgan –

hozirgi – kelasi) ko‘rsatib o‘tgan holda, mantiqiy markazdan teng uzoqlikda yotgan nuqtalar va ularni ifodalovchi so‘zlar bir- biri bilan antonim bo‘la olishini aytib o‘tadi. O‘zbek tilidagi asliy sifatlarda belgi darajasi semasining me‘yoriydan eng ko‘pgacha bo‘lishi (chiroyli – ko‘rkam – go‘zal – zebo) haqidagi qarash tilshunoslar R.Jabborova va S.G‘iyosovning tadqiqotlarida berildi. Binobarin, S.G‘iyosov nomzodlik dissertatsiyasida sifatlarni semantik jihatdan farqlovchi mezon sifatida belgining darajalanish mezonini ko‘rsatib o‘tadi. O‘zbek tilida giponimiyani tahlil qilgan R.Safarovning ishida ham leksik-semantik munosabatlardan biri bo‘lgan graduonimiya hodisasiga alohida munosabat ifodalangan: Masalan: qulun, toy, g‘o‘lon, do‘non, ot”.

Graduonimiya hodisasi o‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning oxirgi o‘n yilligida tadqiqot ob‘yekti sifatida olinib, lug‘aviy-ma‘noviy munosabatning alohida bir turi maqomida tadqiq qilindi. Graduonimiya “...lisoniy ma‘noviy munosabatlarni aks ettiruvchi sinonimiya, omonimiya, antonimiya kabilarning umumiy tarkibiy qismi bo‘lgan – onimiya qismini lotincha gradu (daraja, bosqich) so‘zi bilan biriktirish asosida sun‘iy ravishda yasaldi. Bu hodisa 1990 - yilda tilshunos R.Safarovning nomzodlik dissertatsiyasida ilmiy faraz sifatida berilgan bo‘lsa, lug‘aviy darajalanish olimi Sh.Orifjonovning nomzodlik dissertatsiyasida atroflicha tadqiq etildi”. Tilshunos O.Bazarov tomonidan graduonimiya (darajalanish)ning fonetik, fonologik, morfologik, sintaktik, stilistik sath birliklari orasida ham mavjudligi xususidagi ilmiy qarashlar kun tartibiga qo‘yildi. “U fanda ilk marta lisoniy darajalanishning lingvistik qonuniyat ekanligini isbotlab, darajalanish mexanizmi va hodisasining tabiiy-ontologik mohiyatini ochib berdi”.[2,22]

Akademik A.Hojiyevning tilshunoslikka oid terminlar izohiga bag‘ishlangan lug‘atida darajalanish hodisasi bilan aloqador termin sifatida daraja kategoriyasi, darajali oppozisiya terminlarining izohini kuzatish mumkin. Xususan, daraja tushunchasi doirasidagi darajali oppozisiya termini quyidagicha tavsiflanadi: “Darajali oppozisiya – qarama-qarshi qo‘yiluvchilarning har birida bir belgining turli darajada bo‘lishi asosidagi zidlanish. Masalan, chiroyli – suluv

– barno – go‘zal”. Shuningdek, boshqa shu kabi soha lug‘atida ham darajalanish hodisasi bilan bog‘liq tushunchalar o‘z tavsifi topgan. Shu tariqa o‘tgan asrning so‘nggi choragida o‘zbek tilshunosligida yangi termin – graduonimiya paydo bo‘ldi va uni boshqa lisoniy hodisalardan ajratib turuvchi xususiyatlari o‘rganildi. Graduonimiyaning til hodisasi sifatida tilshunoslikning turli sohalarida hamda turli tizimdagi tillarda tadqiq qilish, ulardan amaliy foydalanish uchun o‘quv lug‘atlar yaratish mexanizmini ishlab chiqish zamonaviy tilshunoslikning keyingi rivojidadagi zarur va muhim vazifalardan biridir.

Darajalanish qatorining eng muhim qurilish belgisi unda bir umumiy belgining ortib yoki kamayib borishidir. Leksema va frazemalar bir umumiy belgining ozlik-ko‘plik darajalari bo‘yicha o‘zaro semantik bog‘lanishlar hosil qiladi.

Graduanomiya asosan uch va undan ortiq asosiy qisimda yaqqol ko‘rinadi. Shunga qaramay darajalanish qatorining lisoniy ko‘rinish jihatdan ikki a‘zoli turi ham borday ko‘rinadi. Misol uchun: **jo‘ja-tovuq** munosabatini olib ko‘aylik. Bu yerda asl hodisaga qaraydigan bo‘lsak, *tuxumdan endigina chiqqan jo‘ja, bir kunlik jo‘ja, bir oylik jo‘ja, yeti oylik tuxumga kira boshlagan jo‘ja... tovuq, bir yillik tovuq.* [1,151]

O‘z-o‘zidan tushuniladiki, darajalanish qatorida har bir graduonimning muayyan o‘rni bor. Bunda ma‘no darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayrim graduonimik qatorlarda o‘zining keng ma‘nosi bilan shu qator graduonimlari o‘rnida qo‘llana oluvchi leksema ushbu darajalanish qatoriga kirmasligi ham mumkin. Masalan, “odam” leksemasi bilan “*chaqaloq*” – “*go‘dak*” – “*bola*” – “*o‘smir*” – “*yigit*” graduonimik qatori o‘zaro shunday munosabatdadir.

Graduonimik qatorlarda ko‘pincha muayyan bir belginingina emas, balki u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan boshqa hamroh belgilarning ham izchil oshib (kamayib) borishi anglashilishi mumkin. Masalan, chaqaloq – go‘dak – bola – o‘smir – yigit – chol qatorida “yosh” belgisi bilan hamkorlikda biologik tafakkur, ijtimoiylikka munosabat kabi qo‘shimcha belgilarning ham tadrijiy ravishda oshib borishi aks etadiki, bular asosan kontekstda yuzaga chiqadi. [1,153]

Xulosa. Xulosa qilsak, yuqoridagi umumiy belgilar shuni ko'rsatadiki, lug'aviy darajalanish leksik birliklar bilan bog'liq bo'lgan semantik hodisalarning turlaridan biridir. Lug'aviy graduonimiyaning eslatilgan belgilari majmuasidan kelib chiqib, uning o'ziga bog'liq yoki yondosh bo'lgan semantik hodisalarga munosabatni aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Bozorov O. O'zbek tiida darajalanish: fil.fan dokt... diss – Toshkent, 1997. -270 b.

2. Eshboyev Q. So'zlararo darajalanish o'quv lug'atini tuzish asoslari: fil. fan. bo'y fal dokt... (PhD) diss – Andijon, 2022. -138 b.

3. Jumabayeva J.Sh .O'zbek va ingliz tillarida leksik graduonimiya: fil.fan.dokt.. diss.avtoreferat. – Toshkent, 2016.-82 b.

4. Mirxonova G. O'zbek tilining sinonimlar o'quv izohli lug'atini tuzishning lingvistik asoslari. Filol.dan.bo'yich fals,dokt. (PhD) ... diss. – Qarshi, 2022. – B.138.

5. Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya. Filol.fan.nomzodi diss... - Toshkent, 1997. -113 b.